

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D. Xodjayeva
29-avgust 2024 yil

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILINI O‘QITISHDA
INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 –	Ta’lim
Ta’lim sohasi:	110000 –	Ta’lim
Magistratura	70110501 -	Ta’lim va tarbiya nazariyasi va
mutaxassisligi:		metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)

Qo‘qon - 2025

Fan/mavzu kodi BSOTO‘SOTT2205		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 2	Kreditlar 5	
Fan/mavzu turi Tanlov		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Boshlang‘ich sinfda ona tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar	60		90	150
2.	I. Fanning mazmuni. “Boshlang‘ich sinfda ona tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar” fanidan tuzilgan dastur shu fanlarni o‘qitish bo‘yicha umumiy masalalar, ya’ni boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘quv-me’yoriy hujjatlari va metodik ishlari, ona tili fanini o‘qitish jarayonida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mustaqil ta’lim va uni tashkil etish metodikasi; uzluksiz ta’lim tizimida ona tili fanining didaktik ta’minotini ishlab chiqish, mashg‘ulot ishlanmalarini tayyorlash, o‘quv-uslubiy majmualarini ishlab chiqish; ochiq mashg‘ulotlarni o‘tkazish va hujjatlarini rasmiylashtirish, darsdan tashqari ish shakllariga rahbarlik qilish kabi masalalarni, ona tili fanining oliy va o‘rta maxsus ta’limda o‘qitish metodikasiga oid masalalarni o‘z ichiga qamrab olgan. Fanni o‘qitishdan maqsad – boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarini samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha chuqur nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish, boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq umumiy masalalar, ona tili fanini oliy va o‘rta maxsus ta’limda o‘qitish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar bilan magistrantlarni qurollantirishdan iboratdir. Fanning vazifalari – magistrantlarni boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitish metodikasiga oid umumiy masalalar bilan tanishtirish. Magistrantlarga oliy va o‘rta maxsus ta’limda ona tili o‘qitish metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumot berish, o‘qitish metodikasining sir-asrorlari bilan tanishtirish. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: I Modul. Boshlang‘ich sinflarda ona tili fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar fanining umumiy masalalari 1-mavzu: Ona tili ta’limining innovatsion paradigmasi. Ta’limdagi innovatsiya tushunchasi, uning pedagogik tizimdagi o‘rni, an’anaviy va innovatsion yondashuvlar o‘rtasidagi farqlar, ona tili ta’limini modernizatsiya				

qilishning ilmiy asoslari, O'zbekiston ta'lim tizimida kechayotgan islohotlar (masalan, raqamli ta'lim, STEAM yondashuvi asosida)tahlili.

2-mavzu. Boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlar

Boshlang'ich sinfda o'qitish jarayoniga xos shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, kreativ ta'lim modelining afzalliklari, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish usullari.

II Modul. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanining xususiy masalalari

3-mavzu. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda interfaol metodlar.

Oliy va o'rta maxsus ta'limda ona tili o'qitish metodikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar va fanning muhim muammolari. Oliy va o'rta maxsus ta'limda ona tili o'qitish metodikasi fanining ilmiy asoslari, tamoyillari. Oliy va o'rta maxsus ta'limda ona tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish; interfaol metodlarning mohiyati, ularning fikrlashni rivojlantirishdagi roli; "Aqliy hujum", "Klaster", "Sinkveyn", "Insert", "Venn diagrammasi", "Blits so'rov" kabi metodlarning dars jarayonida qo'llanishi.

4-mavzu. Muammoli ta'lim texnologiyasi va tadqiqotga yo'naltirilgan o'qitish

Muammoli vaziyat yaratish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va tahliliy qobiliyatini rivojlantirish yo'llari, muammoli dars turlari, muammo qo'yish va uni yechishga o'rgatish metodikasi.

5-mavzu. Multimedia va raqamli resurslar asosida dars ishlanmalari yaratish

Multimedia texnologiyalari(video, audio, grafika, animatsiya, interaktiv taqdimotlar) va raqamli o'quv resurslari (elektron darsliklar, onlayn platformalar, virtual doskalar)dan foydalanish asosida ona tili darslarini loyihalash jarayoni

6-mavzu. Ona tili darslarida axborot-komunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

AKT vositalari (kompyuter, planshet, interaktiv doska, elektron darslik) orqali darsni tashkil etish, raqamli vositalar yordamida o'quv motivatsiyasini oshirish va o'quvchi faoliyatini boshqarish usullari.

7-mavzu. Multimedia va raqamliplatformalar

Ona tili darslarida onlayn platformalardan foydalanish, interaktiv o'yinlar, testlar, hamkorlikda o'qish muhiti yaratish imkoniyatlari, raqamli ta'lim vositalarining afzalliklari.

8-mavzu. Elektron ta'lim vositalari va interaktiv resurslar Ona tili darslari uchun elektron resurslar yaratish texnologiyasi, vizual didaktik materiallar dizayni, interaktiv mashqlar, onlayn viktorinalar tayyorlash amaliy ko'nikmalarini shakllantirish.

9-mavzu. Ona tili darslarida gamifikatsiya (o'yinlashtirish)

texnologiyalari Gamifikatsiya tushunchasi, o'yin elementlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish, rag'batlantiruvchi o'yin mexanizmlarini ishlab chiqish, ona tili darslarida o'yinlashtirilgan topshiriqlar misollarida amaliy tajriba.

10-mavzu. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ona tili darslarini loyihalash

Kompetensiyaviy yondashuv mohiyati, darsda bilim, ko'nikma va malakalarni integratsiyalash, kompetensiyaviy dars modelini ishlab chiqish, o'quvchilarning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish usullari

11-mavzu. Integratsiyalashgan ta'lim texnolojiyalari (ona tili darslarida) Fanlararo bog'liqlik asosida dars tashkil etish usullari, integratsiya samaradorligi, integrativ loyihalar misolida o'quvchilarning keng qamrovli dunyoqarashini shakllantirish yo'llari

12-mavzu. Kreativ fikrlash va tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodlar

O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodlar (T-sxema, insert, konseptual xaritalar) o'rganiladi. Dars jarayonida kreativlikni rag'batlantirish tamoyillari

13-mavzu. Ona tili ta'limida mediasavodxonlik

Media vositalar orqali o'qitish, axborot madaniyatini shakllantirish, soxta axborotlarni farqlash ko'nikmasi, raqamli didaktikaning mohiyati va u orqali o'quvchini mustaqil o'qishga yo'naltirish.

14-mavzu. Innovatsion baholash tizimlari Zamonaviy baholash yondashuvlari, formatif va summativ baholashning o'ziga xosligi, portfel usuli, elektron testlar, baholash mezonlari va rubrikalar yaratish metodikasi bayon etiladi.

15-mavzu. "Innovatsion ona tili darsi" konsepsiyasini himoya qilish

Innovatsion dars loyihalari taqdimoti va tahlili. Loyiha darsining texnologik xaritasi, AKT vositalar, metodlar va baholash tizimi asosida himoya qilish

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar:

"Umumiy masalalar" qismi bo'yicha

1-mavzu: Ta'limdagi innovatsiya tushunchasi, **uning** pedagogik tizimdagi o'rni, an'anaviy va innovatsion yondashuvlar o'rtasidagi farqlar

2-mavzu. Boshlang'ich sinfda o'qitish jarayoniga xos shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, kreativ ta'lim modelining afzalliklari, mustaqil fikrlashni rag'batlantirish usullari.

3-mavzu. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda interfaol metodlar.

4-mavzu. Muammoli vaziyat yaratish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va tahliliy qobiliyatini rivojlantirish yo'llari

5-mavzu. Multimedia va raqamli resurslar asosida dars ishlanmalari yaratish

Multimedia texnologiyalari(video, audio, grafika, animatsiya, interaktiv taqdimotlar) va raqamli o`quv resurslari (elektron darsliklar, onlayn platformalar, virtual doskalar)dan foydalanish asosida ona tili darslarini loyihalash jarayoni

6-mavzu. Ona tili darslarida axborot-komunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

7-mavzu. Ona tili darslarida onlayn platformalardan foydalanish, interaktiv o'yinlar, testlar, hamkorlikda o'qish muhiti yaratish imkoniyatlari.

8-mavzu. Elektron ta'lim vositalari va interaktiv resurslar

9-mavzu. Ona tili darslarida gamifikatsiya (o'yinlashtirish) texnologiyalari.

10-mavzu. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ona tili darslarini loyihalash

11-mavzu. Fanlararo bog'liqlik asosida dars tashkil etish usullari, integratsiya samaradorligi,

12-mavzu. Kreativ fikrlash va tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi metodlar

13-mavzu. Ona tili ta'limida mediasavodxonlik

14-mavzu. Zamonaviy baholash yondashuvlari, formatif va summativ baholashning o'ziga xosligi,

15-mavzu. Innovatsion dars loyihalari taqdimoti va tahlili.

IV. Mustaqil ta'lim bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Mustaqil ishni tayyorlashda fan xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- esse – dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;

- ma'ruza matni tayyorlash;

- kurs ishi yozish;

- konspekt yozish;

- glossariy tuzish;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

- o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

- individual va guruhviy o'quv loyihasi;

- turli ijodiy ishlar yozish;

- mavzuli portfoliolar tuzish;

- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;

- manbaalar bilan ishlash;

- multimediali taqdimotlar yaratish;

- badiiy adabiyotlar va maktab darsliklaridan misollar to'plash kabi mustaqil ish turlaridan foydalaniladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Mustaqil ta'lim mavzusi magistrlar o'rganadigan ma'ruza va laboratoriya mashg'uloti mavzularidan iborat bo'ladi.

	Mustaqil ta'lim magistrnlarni nazariy bilimlarini mustahkamlashda mavzularni tushunish qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlanishiga, umumiy dunyoqarashlarini kengaytirishga yordam beradi. Talaba mustaqil ta'lim tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi: 1. Darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; 2. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish; 3. Talabaning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish. 4. Uzlüksiz ta'lim tizimida ona yili fanidan DTS, o'quv reja va dasturlarni o'rganish, tahlil qilish, uzviylik va izchilligini ta'minlash masalalari. 5. Ona tili fanlarini o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish, mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllarining umumiy tavsifi. 6. Ma'ruza turlari va ularga qo'yiladigan talablar; amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasi. 7. Mustaqil ta'lim va uni tashkil etish metodikasi; ona tili fanlaridan kurs ishi (loyihasi)ni tayyorlash metodikasi. 8. Bitiruv malakaviy ishlari bajarilishining tashkiliy va ilmiy-metodik ta'minoti. 9. Boshlang'ich ta'limda innovatsion-korporativ hamkorlik asosida uzluksiz amaliyotni tashkil etish texnologiyasi. 10. Oliy va o'rta maxsus ta'limda ona tili o'qitish metodikasi fanining ilmiy asoslari, tamoyillari; oliy va o'rta maxsus ta'limda ona tili o'qitish metodikasi bilan bog'liq fanlar, ularning tekshirish metodlari. 11. Nutqiy kompetentsiyalarni (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish) shakllantirish metodikasi. 12. Oliy va o'rta maxsus ta'limda ona tili fonetikasi o'qitish metodikasi. 13. Oliy va o'rta maxsus ta'limda ona tili morfologiyasini o'qitish metodikasi. 14. Oliy va o'rta maxsus ta'limda ona tili leksikologiya bo'limini o'qitish metodikasi. 15. Milliy dasturda ona tili va o'qish darslari integrasiyasining yoritilishi. 16. Boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitishda innovatsion yondashuv. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Magistrant bilish kerak: – Milliy o'quv dasturini o'rganish va ilmiy, uslubiy tahlil qilish, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalar, o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish turlari, shakl va metodlari, o'quv

	mashg'ulotlarini modellashtirish va ularni integratsiya qilish texnologiyasi, o'qitish jarayonida professor-o'qituvchining vazifalari, mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi, ilmiy-metodik tadqiqotlarda izlanish, tadqiq etish ishlari, ilmiy-tadqiqot ishlarda test va anketa so'rovnomalarini tashkil etish, tadqiqot ishlarini tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash, pedagogik tadqiqotlarda informatsion ma'lumotlardan foydalanish haqida <i>tasavvurga ega bo'lishi (bilim)</i>; O'quv mashg'ulot turlari jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, o'quv mashg'ulotlarini modellashtirish va ularni integratsiya qilish, o'qitish jarayonida professor-o'qituvchining vazifalari, mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, mutaxassislik fanlarini o'qitish shakllarini tashkil etish va o'tkazish, boshlang'ich ta'limda ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish, ilmiy-metodik tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish, ilmiy-metodik tadqiqotlarda izlanish, tadqiq etish ishlarini tashkil etish, me'yoriy hujjatlarini o'rganish va ilmiy, uslubiy tahlil qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish va ilmiy-metodik taxlil qilish, reyting tizimida baholashni tizimli ravishda tashkil etish, uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish muammolari bo'yicha ilmiy maqolalar, magistrlik dissertatsiyalari, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, avtoreferatlar, metodik qo'llanma, o'quv qo'llanma va darsliklarni tahlil qilish va tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy g'oyalarni shakllantirish, ilmiy xulosa va tavsiyalarini berish, integratsiyalashgan metodlarni qo'llay olish yuzasidan <i>bilishi va ulardan foydalana olishi (ko'nikma)</i>; – O'quv mashg'ulot turlari jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, o'qitish jarayonida professor-o'qituvchining vazifalari, mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish metodlari va vositalari, ona tili fanlarini o'qitish shakllarini tashkil etish va o'tkazish, ilmiy-metodik tadqiqotlarda izlanish, tadqiq etish ishlarini tashkil etish, ilmiy-uslubiy adabiyotlar bibliografiyasini o'rganish, tahlil qilish va tuzish, uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish muammolari bo'yicha ilmiy maqolalar, magistrlik dissertatsiyalari, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, avtoreferatlar, metodik qo'llanma, o'quv qo'llanma va darsliklarni tahlil qilish va tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy g'oyalarni shakllantirish, ilmiy xulosa va tavsiyalarini berish, ona tili fanlari bo'yicha olgan bilimlarini o'z ilmiy tadqiqot va ilmiy-metodik tadqiqotlarida qo'llay olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi (malaka)</i> kerak.
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish;

	• individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1.60110500 – Boshlang'ich ta'lim. Fan dasturlari. T., 2021-yil. 2.Mavlonova R.A., To'raeva O.T., Xoliqberdiev K.M. -«Pedagogika» T., «O'qituvchi » - 2008-y. 3.M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. “Pedagogika” – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010-y. 4.Yo'ldoshev J.G'., S.Hasanov, M.SHirinov. “Magistrantlarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash. O'quv metodik qo'llanma. Fan va texnologiyalar. T: 2011-y. 1. 5. Yo'ldoshev J.G'., Hasanboeva O.Pedagogik texnologiyalar asoslari – Toshkent: O'qituvchi, 2019. 2. To'xtayeva M. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi – T.: TDPU, 2021. 3. Karimov B. Innovatsion pedagogik texnologiyalar – T.: Fan, 2020. Abduqodirov A. Ta'lim jarayonida innovatsiyalar – T.: 2022 13.Juraev R.H.,Tolipov U.Q., SHaripov SH.S., “Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'nalitirishning ilmiy-pedagogik asoslari” T.:, Fan nashriyoti, 2004- yil. 16.Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Sariev SH. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2022. Qo'shimcha adabiyotlar: 1.Mirziyov SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O'zbekiston” 2016. 2.Mirziyov SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo'ramiz. “O'zbekiston” 2017 3.O'zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoev 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil. 4.Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. 1997 yil T.,“SHarq” nashriyoti) 5.Ibragimov X., Abdullaeva SH. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008. 6.Ochilov S. va Xoshimov K. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, «O'qituvchi», 2010 –y

	7.Geronimus T., Uchebnik malenkiy master texnologiya. 1-4 klass Moskva «AST-PRESS SHKOLA» 2009 god., (www.astpress-shkola.ru) 8.Akvileva G.N., Klitrina Z.A. «Metodika prepodavaniya yestestvoznaniya». Moskva, Vldos. 2001. (www.pedlib.ru) 9.Ochilov Z. Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda kasb tanlashga shakllantirish. Toshkent. “O‘qituvchi”. 1996-yil. 10. M.Haydarov. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining mehnat tarbiyasida xalq an’analaridan foydalanish. Toshkent “Yozuvchi” 1995 yil. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI 1. O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi "O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida " gi PF - 6108 - son farmoni. Axborot manbaalari 1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi xukumat portali. 2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 3. www.mineconomy.uz (O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi) 4. www.mehnat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi)
8.	Fan dasturi Qo‘qon davlat univeristeti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
9.	Fan/modul uchun mas’ullar: Sh.U.Nizamova - Qo‘qon davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
10.	Taqrizchi: M.Sh.Akbarova – Qo`qonDU “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrası dotsenti v.b. (PhD).

